

YUQORI SINIF O'QUVCHILARI XULQIDA TORTINCHOQLIKNING NAMOYON BO'LISHI

Nozimboyeva Muqaddas

*Namangan Davlat pedagogika instituti pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilari xulq-atvorida tortinchoqlik sifatining psixologik-pedagogik jihatlarini tahlil etilgan. Tortinchoqlikning kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari, o'quv jarayoni va shaxs rivojiga ta'siri yoritilgan shuningdek, tortinchoq o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi va maktab psixologining vazifalari, samarali pedagogik yondashuvlar ko'rsatiladi va keng fikr mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *tortinchoqlik, yuqori sinf o'quvchilari, xulq-atvor, o'smirlik davri, ijtimoiy moslashuv, psixologik xususiyatlar, o'ziga ishonch, ta'lim jarayoni.*

ПРОЯВЛЕНИЕ ЗАСТЕНЧИВОСТИ В ПОВЕДЕНИИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

Аннотация: *В данной статье анализируются психолого-педагогические аспекты качества застенчивости в поведении учащихся старших классов. На основе научных источников рассматриваются причины застенчивости, формы её проявления, влияние на учебный процесс и личностное развитие. Также указываются задачи учителя и школьного психолога в работе с застенчивыми учениками, а также эффективные педагогические подходы.*

Ключевые слова: *застенчивость, учащиеся старших классов, поведение, подростковый возраст, социальная адаптация, психологические характеристики, уверенность в себе, учебный процесс.*

THE MANIFESTATION OF SHYNESS IN THE BEHAVIOR OF HIGHER- GRADE STUDENTS

Annotation: *This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of the quality of shyness in the behavior of higher-grade students. The causes of shyness, forms of manifestation, impact on the educational process and personal development are covered on the basis of scientific sources. The tasks of the teacher and school psychologist in working with shy students, as well as effective pedagogical approaches are also indicated.*

Keywords: *shyness, higher-grade students, behavior, adolescence, social adaptation, psychological characteristics, self-confidence, educational process.*

KIRISH

Barchaga ma'lumki bugungi jamiyat sharoitida yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivoji muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari shaxsining shakllanish jarayonida uchraydigan muammolar ta'lim sifati va yoshlarning kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday muammolardan biri tortinchoqlikdir. Yuqori sinf o'quvchilari (9–11-sinflar) o'smirlik va ilk yoshlik davrida bo'lib, bu davr shaxsning o'zini anglashi, ijtimoiy mavqeini belgilashi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarining shakllanishi bilan xarakterlanadi²¹. Aynan shu bosqichda tortinchoqlik kuchayib, o'quvchining faolligi, muloqotga kirishishi va o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Tortinchoqlik ko'pincha ijtimoiy qo'rquv, o'ziga past baho berish, tanqidga nisbatan haddan tashqari sezgirlik bilan bog'liq bo'lib, o'quv jarayonida bilimlarni to'liq o'zlashtirishga salbiy ta'sir etadi. Shu sababli mazkur maqolada tortinchoqlikning mohiyati, sabab va oqibatlari hamda uni bartaraf etish yo'llarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

METADALOGIYA

Tortinchoqlik shaxsning ichki psixik jarayonlari va tashqi ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat mahsuli sifatida talqin qilinadi. Ushbu xususiyat faqatgina xulqiy namoyon bo'lish bilan cheklanmay, balki emotsional, kognitiv va motivatsion sohalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi²². Tadqiqot jarayonida tortinchoqlikni shaxsning o'z-o'zini anglash darajasi, emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy vaziyatlarni idrok etish xususiyatlari orqali tahlil qilish metodikasi asos qilib olindi. Psixologik nuqtayi nazardan tortinchoqlik shaxsning ichki qarama-qarshiliklari, ya'ni o'zini namoyon etish istagi bilan baholanishdan qo'rquv o'rtasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keladigan holat sifatida qaraladi. Metodologik yondashuvda shaxsga yo'naltirilgan va tizimli-tahliliy prinsiplar muhim o'rin tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tortinchoqlikni individual psixologik xususiyat sifatida o'rganishga imkon bersa, tizimli yondashuv uni shaxs rivojining boshqa komponentlari bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilishga sharoit yaratadi. Bunda yuqori sinf o'quvchilarining yosh va rivojlanish xususiyatlari alohida e'tiborga olindi. Tadqiqotda tortinchoqlikning psixologik mohiyatini ochib berishda kuzatish, suhbat, psixodagnostik metodlar hamda mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali tortinchoqlikning emotsional zo'riqish, ijtimoiy xavotir va ichki ishonchsizlik bilan bog'liqligi aniqlashtirildi. Shu bilan birga, o'quvchilarning turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutish xususiyatlarini baholash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, metodologik asosda tortinchoqlikning vaqtinchalik holat emas, balki ma'lum sharoitlarda mustahkamlanib boruvchi psixologik xususiyatga aylanish ehtimoli mavjudligi inobatga

²¹ G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent. O'qituvchi, 2010.

²² Davletshin M.G'. Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent. O'qituvchi, 2012.

olinishi kerak²³. Bu holat tadqiqotda profilaktik va rivojlantiruvchi yondashuvlarning ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi. Metodologiya tortinchoqlik tushunchasining psixologik mohiyatini chuqur va har tomonlama o'rganishga, yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlashga hamda keyingi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqori sinf o'quvchilarida tortinchoqlikning shakllanishi ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Mazkur muammoni tadqiq etgan olimlar tortinchoqlikni shaxs rivojlanishining ma'lum bosqichlarida yuzaga chiqadigan moslashuv qiyinchilik sifatida talqin qiladilar. Bir qator tadqiqotchilar tortinchoqlikning biologik asoslariga e'tibor qaratib, nerv tizimi tipi va temperament xususiyatlarining ushbu holatga ta'sirini ta'kidlaydilar. Jumladan, introvert tipdagi, sezgir va tez hayajonlanuvchi o'quvchilarda tortinchoqlik holati ko'proq uchrashi qayd etilgan. Bu holat ularning tashqi ta'sirlarga nisbatan kuchli emotsional reaksiya bildirishi bilan izohlanadi. Psixologik adabiyotlarda tortinchoqlikning shakllanishi o'z-o'zini baholash darajasi bilan chambarchas bog'liq holda yoritiladi²⁴. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'z imkoniyatlarini real baholay olmaslik, shaxsiy muvaffaqiyatlarni inkor etish hamda muvaffaqiyatsizliklarga haddan tashqari e'tibor qaratish tortinchoqlikning kuchayishiga olib keladi. Yuqori sinf o'quvchilarida akademik va ijtimoiy talablarga nisbatan yuqori mas'uliyat hissi mavjud bo'lib, bu holat psixologik bosimni oshiradi.

Ijtimoiy omillarni o'rganishga bag'ishlangan manbalarda esa tortinchoqlikning shakllanishida ta'lim muassasasi muhiti va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi. Ayrim tadqiqotlarda sinf jamoasida psixologik iqlimning noqulayligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi va kommunikativ tajribaning cheklanganligi tortinchoqlikni kuchaytiruvchi omillar sifatida qayd etilgan. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda yuqori sinf o'quvchilarida tortinchoqlikning paydo bo'lishi o'smirlik davriga xos bo'lgan shaxsiy identifikatsiya jarayoni bilan bog'lab tushuntiriladi. Ushbu davrda o'quvchi o'zining ijtimoiy rolini aniqlashga intiladi, bu esa ichki ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Natijada tashqi baholashga nisbatan sezgirlik ortib, tortinchoqlik xulqiy xususiyat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tortinchoqlikning kelib chiqish sabablari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularni alohida-alohida emas, balki yagona tizim sifatida o'rganish muhimdir²⁵. Aynan kompleks yondashuv yuqori sinf o'quvchilarida tortinchoqlikni aniqlash, tushuntirish va oldini olishda samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

²³ Qodirova F.R. O'smirlar psixologiyasi. Toshkent. Fan va texnologiya, 2016.

²⁴ Karimova V.M. Shaxs psixologiyasi. Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

²⁵ Ismoilov R.I. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent. Ilm ziyo, 2018.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tortinchoqlik yuqori sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida bevosita va bilvosita namoyon bo'luvchi muhim omillardan biridir. Tortinchoq o'quvchilar nazariy bilimga ega bo'lsalar-da, uni og'zaki yoki yozma shaklda namoyon etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, baholash bilan bog'liq vaziyatlarda emotsional zo'rqiqlik kuchayib, diqqatning tarqoqlashuvi va xotira samaradorligining pasayishi kuzatildi. Bu holat bilimlarning to'liq namoyon bo'lmashligiga olib kelib, o'quvchining real imkoniyatlari baholash natijalarida aks etmasligiga sabab bo'ladi. Muhokamalar jarayonida aniqlanishicha, tortinchoqlik o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'quvchilar muammoli vaziyatlarda tashabbus ko'rsatishdan qochib, tayyor javoblarga tayanishga moyil bo'ladilar. Natijada ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaydi.

Doimiy ichki xavotir va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv o'quvchilarda bilim olish jarayoniga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat uzoq muddat davom etganda, o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishning pasayishiga va akademik befarqlikning shakllanishiga olib kelishi ehtimoli mavjud²⁶. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tortinchoqlik nafaqat individual o'quv faoliyatiga, balki jamoaviy ta'lim shakllariga ham ta'sir qiladi. Guruhli va loyihaviy ishlarda tortinchoq o'quvchilar ko'pincha kuzatuvchi rolda qolib ketadilar, bu esa ularning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, jamoaviy baholash tizimlarida ularning hissasi yetarli darajada inobatga olinmasligi mumkin²⁷. Muhokama natijalariga asoslanib aytish mumkinki, tortinchoqlikning o'quv faoliyatiga salbiy ta'siri vaqtida aniqlanib, tegishli pedagogik va psixologik choralar ko'rilmasa, u barqaror xulqiy xususiyatga aylanib boradi²⁸. Shu sababli, ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan baholash va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqori sinf o'quvchilari xulqida tortinchoqlikning psixologik mohiyati, uning kelib chiqish sabablari hamda o'quv faoliyatiga ta'siri doimiy tahlil qilinishi kerak. Tortinchoqlik yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy va akademik rivojlanishida muhim omil bo'lib, u nafaqat muloqot jarayonida, balki o'quv faoliyatining samaradorligida ham sezilarli aks etadi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, tortinchoqlikning

²⁶ Abdullaeva M.X. O'quvchilar shaxsini shakllantirishda psixologik yondashuvlar. Toshkent. Fan, 2015.

²⁷ Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. O'qituvchi, 2013.

²⁸ To'xtayeva N.N. O'smirlar xulq-atvoridagi psixologik muammolar. Toshkent. Ilm-fan, 2019.

shakllanishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa o'smirlik va ilk yoshlik davrida kuchayish tendensiyasiga ega. O'z-o'zini baholash darajasining pastligi, baholanishga nisbatan yuqori sezgirlik hamda ijtimoiy tajribaning yetarli emasligi ushbu holatning barqarorlashuviga olib keluvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tortinchoq o'quvchilar bilim jihatdan yetarli salohiyatga ega bo'lsalar-da, uni amaliy faoliyatda namoyon etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat o'quv motivatsiyasining pasayishi, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikning cheklanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida psixologik jihatdan qulay muhit yaratish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda o'quvchilarda o'ziga ishonchni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tortinchoqlikni erta aniqlash va tizimli ravishda bartaraf etish yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy kamoloti va o'quv faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent. O'qituvchi, 2010.
2. Davletshin M.G'. Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent. O'qituvchi, 2012.
3. Qodirova F.R. O'smirlar psixologiyasi. Toshkent. Fan va texnologiya, 2016.
4. Karimova V.M. Shaxs psixologiyasi. Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.
5. Ismoilov R.I. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent. Ilm ziyo, 2018.
6. Abdullaeva M.X. O'quvchilar shaxsini shakllantirishda psixologik yondashuvlar. Toshkent. Fan, 2015.
7. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. O'qituvchi, 2013.
8. To'xtayeva N.N. O'smirlar xulq-atvoridagi psixologik muammolar. Toshkent. Ilm-fan, 2019.